TARJIMA MILLATLAR O'RTASIDA BEVOSITA ALOQA VOSITASI SIFATIDA

Malika Suvanqulova
Jizzax Sambhram universiteti

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk yillardan boshlab maorifga katta e'tibor qaratdi. Shu jumladan O'zbekiston Chet davlatlar bilan xalqaro aloqa qilmasdan turib o'z kelajagini belgilab bera olmasligini tushungan holda, o'z e'tiborini chet el xalqlari tili, madaniyati, san'ati, davlat tuzilishi va joylashuviga qaratdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishini belgilab olishda ta'limning naqadar muhim axamiyatga ega ekanligini ko'rsatar ekan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edilar: «Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi va professional tayyorgarlik 21-asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu islohatlarning belgilangan yo'lidan borishining eng yaxshi loyihasidir. Bu sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishidir. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ana shu fikrning amaliy tadbig 'i asosidako'rish mumkin».

Shu sababli O'zbekistonda tarjimashunoslik sohasida ham juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki badiiy tarjimada asliyat ruhini, mohiyatini anglash, matndagi turli tuman elementlarning leksik, frazeologik, grammatik, fonetik funksiyalarini, tushunib yetish, tarjima tilida ularga har tomonlama mos muqobillar topish g'oyat ko'p qamrovli va murakkab jarayondir.

Bunda L.S. Barxudarovning ta’biri bilan aytganda, “ikki turli xil tillarning leksik birliklari o’rtasidagi semantik muqobilligini topish muhimdir”

Ingliz tilidagi milliy xos so’zlarni o’zbek tiliga tarjima qilish usullari va ularga oid muammolar tilshunoslikning kam o’rganilgan sohalaridan biridir.

Keyingi paytlarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e’tibor berilmoqda.Tarjima tillarinig kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanish sur’atini jadallashtiradi,lug’at boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Tarjima inson ma’naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro’yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Shuning uchun hozirgi paytda lingvistikaning eng dolzarb muammolaridan biri tarjimadir. Tarjimaning leksik muammolari esa birinchi qatorni egallaydi.

Tarjima soxasida tilshunoslarimiz ko’pgina yutuqlarga erishgan bo’lsada, milliy xos so’zlar tarjimasi borasidagi ishlar ozchilikni tashkil etadi. Milliy xos so’zlarning o’zbek tilidagi tarjimasi borasidagi adabiyotlarning kamligi va ularning mukammal emasligi bu sohada ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tarjima – bu yuksak badiiy ijoddir. Ijod bo’lganda ham ba’zan asliyat muallifiga nisbatan ko’proq izlanish va mashaqqat chekishni taqozo etadi. Tarjima lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so’z san’atidir. Tarjimon esa ijodkordir.

Millatlar o’rtasida o’zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. «Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so’zlashsalar ham, ammo ularning taffakur qonunlari bir xildir», deb yozadi tarjimashunos olim G’.Salomov. Tarjima ko’p sohali, sertarmoq va murakkab hodisa. Tarjimaning bosh xossasi uni boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat. Ijodiy jarayon so’z san’ati ekanligi hammaga ayon[54, B.31].

Ma’lumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Hozirgi paytgacha qilingan tarjimalar, masalan, rus adabiyoti namoyondalarining asarlari bevosita, ingliz, nemis, fransuz yozuvchilarining asarlari esa bilvosita (vosita til) rus tili orqali tarjima qilindi. Keyingi qator yillarda bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar ham paydo bo’ldi. Hattoki ayrim adiblarimiz asliyatdan tarjima qilish maqsadida chet tillarini o’rganishga kirishishdi.

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo’lib, u kishidan bag’oyat katta bilim egasi bo’lishni taqozo etadi. Tarjima teng ma’nolilik (muqobillik) ni taqozo etadi, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo’lishi kerak. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridan biri bo’lib kelganligi aniq. Tarjimon faoliyatining asosiy mahsuli va sifati ham zotan shunga bog’liqdir.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat’iy nazar bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun umumiy bo’lgan ikki ta holat mavjud:

1. Dastavval tarjima qilish uchun mo’ljallangan asarni tushunish, uning janrini aniqlash va tahlil qilish lozim. Bu jarayon ona tilida amalga oshiriladi.

2. Asar o’girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish zarur. Bularga badiiy so’z, so’z birikmalari, grammatik shakllar kiradi.

Tarjima tushunchasining ma’nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy–ommaviy kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog’ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqaboshqa tillarda so’zlashuvchi, tarjimonning xizmatiga muxtoj bo’lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o’giriladi.

Asl nusxada ifodalangan fikr bo’lak tilda ham xuddi asliyatdagiday to’la, aniq va ta’sirchan bo’lishi lozim. Bundan tashqari, tarjima o’sha asar o’girilgan tilning andozasiga mos, muvofiq bo’lishi darkor.

Tarjima – forscha «tarzabon» so’zidan arabiylashib o’zgargan. («tarzabon» -chiroyli so’zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma’noni anglatadi). Arab tiliga «tarjimon» shaklida o’tgan, undan «tarjima» yoki «tarjuma» hosil bo’lgan. O’zbek adiblari bunday tushunchani ag’darish, o’girish singari atamalar bilan ifoda etganlar.

Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma’noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Tarjima hozirgi davrda jamiyatimizning juda ko’p sohalarida amalda qo’llanib kelmoqda. Telegraf axborotidan tortib ilmiy-texnikaviy ma’lumotlargacha tarjima vositasida bir joydan ikkinchi joyga yetkaziladi.

Tarjimaning turlari juda ko’p: rasmiy xabarlar va gazeta materiallari tarjimasi, siyosiy publisistik adabiyot tarjimasi. Bu sohalarning har biri o’ziga xos uslub va talablarga ega. Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani egallash, saqlash va yetkazishdir, Lekin yangi asar yaratishdan iborat emas. Tarjimaning mohiyati esa, qayta yaratishdan iboratdir.

Xalqlar bir-biridan nima bilan farqlanadi. Millatning eng asosiy belgilaridan biri til ekanligi ma’lum. Chunki muayyan bir xalqqa mansub bo’lgan hamma odamlar o’zlari uchun ona tili hisoblangan tilda so’zlashadilar. Biroq dunyoda qancha xalq bo’lsa, tillarning soni ham shuncha deb xulosa chiqarishga asos bo’lmaydi. Boshqacha aytganda, xalqlar soni bilan tillarning soni hamma vaqt ham bir-biriga mutanosib bo’lavermaydi. Chunki bir qancha xalqlar bir tilda so’zlashishlari ham mumkin.

Masalan, ingliz tilida faqat inglizlarning o’zlarigina emas, balki yer kurrasining turli qismlarida yashovchi boshqa xalqlar ham, jumladan, amerikaliklar, shotlandlar, avstraliyaliklar, zelandiyaliklar, Shimoliy Irlandiyada va boshqa xalqlarning bir qismi ingliz tilida gaplashadilar. Masalan, nemis tili nafaqat german nemislari uchun ona tili hisoblanadi, qolaversa, ushbu til avstraliyaliklar, german-shveysarlar, elzasliklar, lyuksemburgliklar uchun ham ona tili hisoblanadi.

Fransuz tili ham shunday, fransuzlar uchun bu til ona tili hisoblansa, Jazoirda yashovchi xalqlar, kanadada yashovchi xalqning bir qismi ham fransuz tilida so’zlashadilar. Jahonda 2 mingdan ziyod til bo’lgan bir vaqtda bevosita «tildan-tilga» formulasi bo’yicha tarjima qilish amalda nihoyatda q iyin.

Tarjima mamlakatimizdagi qardosh xalqlar o’rtasida do’stona aloqalar o’rnatish va rivojlantirishda barcha milliy madaniyatlarning baynalminal zaminini mustahkamlashda faol rol o’ynaydi.

Tarjima – bu faqat aloqa vositasigina emas, balki o’ziga xos lisoniy-uslubiy va terminologik boyitishning qudratli omili ham hisoblanadi.

Ayniqsa, hozirgi davrda xalqlar o’rtasida hamkorlik, hamjihatlik, o’zaro va har tomonlama aloqalar nihoyatda jadallashib, zo’rayib borayotgan asrda ko’p millatli madaniyatning tarjimasiz taraqqiy etishini tasavvur qilish qiyin.

Yangi avlodni tarbiyalashda adabiyot va tarjima ham shunchalik davlat ahamiyatiga molik ishdir. Bu borada bizning yozuvchilarimiz tarjimachiliksohasida ham barakali mehnat qilmoqdalar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. – // T., 2008.

2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. - // T.: Sharq, NMK, 1999, -- 184 bet.

3. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интерконтекстуальность: Сборник статей / Научный редактор Бухаркин П.Е. – Спб.: Изд-во С.Петерб. ун-та, 1999. – С 444.

4. Беркнер С.С. Драматургическая проза Шекспира и разговорный язык. – «Теория и практика лингв. Описания разговорной речи», Горький, 1976, Вып. 7. – С. 47-49.

5. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. Ўқитувчи., Т., 1978. Б .149-150, 182-.

6. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 1983.